

AMIR TEMUR DAVLATINING FRANSIYA BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li

Annotatsiya: Maqola Amir Temur davlatining Fransiya bilan diplomatik aloqalarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, Temuriylar imperiyasining Yevropadagi asosiy davlatlardan biri bo'lgan Fransiya bilan o'zaro siyosiy, savdo va madaniy munosabatlarini tahlil qiladi. Ushbu aloqalar, asosan, harbiy ittifoqlar va strategik manfaatlarga asoslangan bo'lib, Amir Temur va uning vorislari tomonidan Fransiya hukmdorlari bilan o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga qaratilgan. Maqola, shuningdek, bu diplomatik aloqalarning o'sha davrdagi xalqaro siyosat va Temuriylar imperiyasining global ta'siriga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar imperiyasi, Fransiya, diplomatik aloqalar, savdo, harbiy ittifoqlar, Yevropa, siyosiy munosabatlar, tarixiy aloqalar, xalqaro siyosat, strategik manfaatlar

Аннотация: Статья посвящена изучению дипломатических отношений государства Амира Темура с Францией, а также анализируются взаимные политические, торговые и культурные связи Империи Тимуридов с Францией, одной из главных стран Европы. Эти отношения основывались главным образом на военных союзах и стратегических интересах и были направлены на укрепление позиций Амира Темура и его преемников среди правителей Франции. В статье также показано, как эти дипломатические отношения повлияли на международную политику того времени и глобальное влияние Империи Тимуридов.

Ключевые слова: Амир Темур, Империя Тимуридов, Франция, дипломатические отношения, торговля, военные союзы, Европа, политические отношения, исторические отношения, международная политика, стратегические интересы.

Abstract: The article is devoted to the study of the diplomatic relations of Amir Temur's state with France, and analyzes the mutual political, trade and cultural relations of the Timurid Empire with France, one of the main countries in Europe. These relations were mainly based on military alliances and strategic interests, and were aimed at strengthening the position of Amir Temur and his successors with the rulers of France. The article also shows how these diplomatic relations influenced the international politics of the time and the global influence of the Timurid Empire.

Key words: Amir Temur, Timurid Empire, France, diplomatic relations, trade, military alliances, Europe, political relations, historical relations, international politics, strategic interests

Amir Temur davlatining Fransiya bilan diplomatik aloqalari mavzusi o'rganishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Amir Temur hukmronligining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan davrda, mamlakatlar o'rtasida diplomatik aloqalar tashkil etish, savdo-sotiq va madaniy aloqalar o'rnatish har bir davlatning xalqaro obro'sini mustahkamlash uchun muhim bo'lgan. Fransiya esa o'sha davrda Yevropaning yetakchi davlatlaridan biri sifatida, o'z hududida siyosiy va iqtisodiy kuchga ega edi. Amir Temur va Fransiya o'rtasida bo'lgan diplomatik aloqalar asosan o'zaro savdo va madaniy almashinuvlarga asoslangan bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari va diplomatik hamkorliklari o'sha davrning global siyosiy manzarasida muhim rol o'ynaydi. Jahon tarixida Fransiya bilan do'stona munosabatlarimiz teran ildizlarga ega ekanini ifoda etuvchi ma'lumotlar ko'p uchraydi. Ayniqsa bu do'stlik aloqalarining rivojida Amir Temurning roli katta hisoblanadi. Fransuz tarixchilari Amir Temuning jahon tarixida tutgan o'rni haqida ko'plab fikrlar bildirishgan. "Amir Temurga teng keladiganlar kam topiladi, Amir

Temurdan o'tadiganlar esa, topilmasa kerak. Uning nomi Iskandar, Doro, Sezar, Chingizxon, Bonopartlar bilan yonma-yon turadi".[1] XIV asr o'rtalarida Buyuk Ipak yo'lining g'arb mamlakatlariga olib boruvchi tarmog'i turli nizolar tufayli inqirozga uchragan edi. O'sha davrda Amir Temur turli sohalarda qit'alararo aloqalar tiklanishiga sharoit yaratib berdi. 1402-yilda Karl VI Amir Temur bilan mustahkam siyosiy aloqalarni o'rnatishga intildi. Ular yozishmalarining bir qismi Fransiya hujjat arxivida saqlanadi. Mazkur maktublarda Amir Temur qirolning Sharqqa nisbatan siyosatini qo'llab-quvvatlagan holda, o'z davlati bilan Fransiya o'rtasida savdo-sotiq yo'lga qo'yilishining ahamiyatiga e'tibor qaratadi: "Bizning u ulug' amirdan kutganimiz shuldurki, doimo bizga shohona maktublarni yuborib, salomatliklarini bildirib tursalar, toki biz xotirjam bo'lgaymiz. Yana sizning savdogarlaringiz bu tarafga qatnab tursalar, biz bu yerda ularni azizu mukarram tutg'umuzdir, shuningdek, bizning savdogarlar u tarafga yuborilsa, siz ham ularni azizu mukarram tutsangiz, hech kimsa ularga zo'rlik qilmasa va zarar-zahmat yetkazmasa! Chunki dunyo savdogarlar bilan oboddir!". Sohibqironning Fransiya qiroliga yozgan, bizning davrimizgacha lotincha tarjimai yetib kelgan ikkinchi maktubi ham 1402-yil 1-avgust sanasi bilan belgilangan. Har ikkala maktub arxiyepiskop Ioann III tomonidan Fransiya yetkazilgan. 1403-yil iyunda Parijga yetib borgan arxiyepiskop Amir Temurning Fransiya qirolligini qiziqtiruvchi taklifini bayon etadi. Unda ikki davlat savdogarlarining erkin savdo munosabatlarini ta'minlash va savdo erkinligini tegishli bitim orqali kuchga kiritish o'z ifodasini topgandi. Amir Temurning o'zaro hamkorlik to'g'risidagi tashabbusi Fransiya qirol tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingani 1403-yil 15-iyunda Karl VI ning Sohibqiron nomiga yo'llagan maktubida o'z ifodasini topadi. "Yaratganning marhamati bilan franklar qirol Karl muhtaram hazrat va muzaffar podshoh Temurbekka salom yo'llaydi va tinchlik tilaydi" so'zlari bilan boshlanadigan mazkur maktubda Fransiya bilan Amir Temur davlati o'rtasida savdo aloqalarini o'rnatish masalasiga katta ahamiyat qaratiladi va shunday so'zlar bilan yakunlanadi: "Biz sizning ishlaringizni, foydali takliflaringizni qabul qilamiz, imkoni bor joylarda (ularga) barobar va undan ortiqroq iltifot ko'rsatishga va'da beramiz".

Amir Temur ham, Karl VI ham o‘zaro do‘stlik va birdamlikdan hamda savdo bitimi tuzishdan manfaatdor bo‘lishganini mazkur maktublardan anglash mumkin. Akademik Akmal Saidov va Lyusen Keren hammuallifligidagi “Amir Temur va Fransiya” nomli asarda Vensan Frunyoning Amir Temur haqidagi ushbu fikri qayd etilgan: “Amir Temur mavzusi G‘arbiy Yevropada Klavixo va Jenkinson safarnomalari e‘lon qilinmasdan burun, shuningdek, Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy singari tarixchilarning asarlari tarjima qilinmasdan oldin tarixiy va adabiy mavzu sifatida mavjud bo‘lgan”. [2] Anqara jangidan oldin, Yuz yillik urushning tinch bosqichlari vaqtida chet elda baxtlarini izlagan ko‘plab Yevropa ritsarlari va qurolsozlaridan ba‘zilari Amir Temur armiyasida xizmat qilishgan. Jak du Fey ismli fransuz zamindorining Amir Temur qo‘l ostida xizmat qilgani haqida ma‘lumotlar mavjud, ammo uning xizmati nimadan iborat bo‘lgani noma‘lum. Shunisi ma‘lumki, Amir Temur Nikopol jangida dahshatli muvafaqqiyatsizlikka uchragan salib yurishidan so‘ng, o‘z vatandoshlariga qo‘shilib olishi uchun uni ozod qilgan. Jangdan so‘ng Usmonli sultoni ko‘plab mahbuslarni qatl etishni buyurgan, ammo Amir Temur Usmoniylarning jihod chaqirig‘iga javob berish uchun yuborgan tatar jangchilari Jak du Feyni tanib, uni qatl etilishdan qutqarib qolishgan. [3] Amir Temur bilan Yevropa davlatlari qirollari o‘rtasidagi diplomatik yozishmalarning bir qismi bizgacha yetib kelgan va ular Fransiya, Angliya, Italiya kabi davlatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu xatlar ilmiy tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan va boshqa tillarga tarjima ham qilingan. Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yuborgan maktublari, Fransiya qiroli Karl VI ning va Angliya qiroli Genrix IV ning Amir Temurga yo‘llagan xatlari, Mironshohning Yevropa davlatlari qirollariga jo‘natgan murojaatnomasi ana shular jumlasidandir. Sohibqironning Ispaniyaga yuborgan elchilariga javoban Ispaniya qiroli Rui Gonsales de Klavixoni Amir Temur huzuriga yuboradi. [4] Sohibqironning Yevropa qirollari bilan olib borgan muloqotlari orasida, ayniqsa, Fransiya qiroli Karl VI bilan yozishmalari alohida tarixiy ahamiyatga ega. 1394 va 1399 yillarda Amir Temur huzuriga kelgan Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Fransuaga Sandro ismli vakil hamroh bo‘lgan. Sandroning qo‘lida Genuyaning homiysi bo‘lgan

Fransiya qirolining Amir Temur nomiga yozilgan maktubi bor edi. Hozirgi kunda Fransiyaning Milliy arxivida 4 xat saqlanmoqda. Birinchisi, Amir Temurning Fransiya qirol Sharl IV ga fors tilida yozilgan xatining asl nusxasi; Ikkinchisi, shu xatning arxiyepiskop Ioaanning o'zi yoki uning biron zamondoshi lotin tiliga tarjima qilgan nusxasi; Uchinchisi, Fransiya qirol Sharl IV ning Amir Temurga lotin tilida yozgan xatining nusxasi; To'rtinchisi, Mirzo Mironshohning uch nasroniy qirolga yo'llagan xatining lotin tiliga tarjima qilingan nusxasi. Uning asl nusxasini Ioaan o'zida saqlagan keyinchalik Angliya qiroliga ko'rsatgan.[5] Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davlatining Fransiya bilan diplomatik aloqalari o'rta asrlar tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos voqealardan biridir. Bu aloqalar nafaqat ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq va madaniy almashuvni rivojlantirishga xizmat qilgan, balki Sharq va G'arb o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning kengayishi va mustahkamlanishiga ham hissa qo'shgan. Amir Temur o'zining siyosiy donoligi va strategik yondashuvi orqali yevropalik davlatlar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yib, o'zining xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlagan. Fransiya bilan o'rnatilgan diplomatik aloqalar tufayli, Temur saltanatining iqtisodiy imkoniyatlari kengaygan, savdo karvon yo'llari xavfsizligi ta'minlangan va Yevropa xalqlari orasida uning obro'si yanada oshgan. Bu aloqalar ikki tarafning ham siyosiy manfaatlariga mos kelgan bo'lib, ularning natijasida Sharq va G'arb o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi ufqlari ochilgan. Amir Temur va Fransiya qirolligi o'rtasidagi diplomatik aloqalar, bugungi kun uchun ham, xalqaro siyosatda o'zaro manfaatdorlikka asoslangan hamkorlik tamoyillarining ibratli namunasi sifatida o'rganishga arziydi. Bu tarixiy jarayon xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, tinchlik va hamkorlikka asoslangan munosabatlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jean-Paul Roux TAMERLAN. Paris 1994 p. 24

2.<https://daryo.uz/2018/10/10/amir-temur-va-fransiya-qiroli-ortasidagi-maktublar-nima-haqida-edi>

3.Wood, Frances. The Silk Road: Two Thousand Years in the Heart of Asia Frances Wood. University of California Press, 2002 ISBN 9780520243408

4.Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. 1-2 jild. T .: Fan nashriyoti, Toshkent 2019 yil.

5.L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil